

6-7 YOSHLI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLIGI

*Qo'qon universiteti Pedagogika va psixologiya
Kafedra 4-kurs talabasi - Sobirova Oyxon Adhamjon qizi
Qo'qon universiteti Pedagogika va psixologiya kafedra
Katta o'qituvchisi - Ashurova Gulruxon Oxunovna*

Annotatsiya. Ushbu bitiruv malakaviy ishida 6–7 yoshli bolalarning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligi masalasi chuqur o'rganilgan. Bolalarning maktabga moslashuvi, bilim olishga tayyorgarligi, intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanish darajasi psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Ishda bolalarning maktabgacha yoshda egallashi zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar, shuningdek, ularning jismoniy, ruhiy va aqliy tayyorgarlik darajalarini baholash mezonlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: psixologik tayyorgarlik, maktabgacha yoshdagi bolalar, maktabga tayyorgarlik, emotsional rivojlanish, intellektual rivojlanish, ijtimoiy

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman".¹ Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilimga, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, fikrlarini mustaqil va erkin ifodalay olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bugungi kunning asosiy vazifalaridandir. Aynan shuni e'tiborga olgan holda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga tayyorlash sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarorining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ning "Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish" deb nomlangan paragrafida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqish va maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy,

¹ Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.

nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishini va shu bilan birga bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozimligi ta'kidlangan.

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi siyosiy va iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda ta'lim tizimini o'zgartirish, uni bugungi kun talablari asosida amaliy choralarni ko'rish maqsadida bir qator mazmunli ishlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Ta'lim sohasida keng joriy qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasida: "Maktabgacha ta'lim va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, yetuk, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir"², - deyilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risi"dagi PQ-4312-sonli qarorida ham maktabgacha ta'lim muassasasida 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarlik monitoringini joriy etish va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish zarurligi ko'zda tutilgan. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, u yerda beriladigan ta'lim-tarbiyani to'liq o'zlashtira olishlariga erishish MTT tarbiyachilari asosiy faoliyatlarining bir qismidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini ta'minlash bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning vazifalaridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risi"dagi PQ-4312-sonli qarorida ham maktabgacha ta'lim.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shaxsiy tayyorligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga munosabati, shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutadi. Aqliy tayyorgarlik bolaning obrazli va mantiqiy fikrlashi, bilimga qiziqishi, mustaqilligi, o'zini-o'zi nazorat qilishi hamda o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishini o'z ichiga oladi. Bolaning maktabda ta'lim olishi samarasi uning ona tilini 14 bilishiga va nutqni qanchalik rivojlanganligiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Chunki butun o'quv faoliyati shularga, ya'ni nutqiy-mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrlashi, til malakasining rivojlanganligi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o'z tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosiga quriladi.

² O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Xalq so'zi" gazetasi, 2020., 24 sentabr, 202 (7704)-son

Venger bolalarning maktabga tayyorligini psixik rivojlanishning bir bosqichi sifatida qaraydi. Unga ko'ra, 6–7 yoshdagi bola ta'limga kirishdan oldin:

- Bilish faoliyati (xotira, tafakkur, diqqat, idrok),
- Hissiy-emotsional muvozanat,
- Ijtimoiy moslashuv darajalariga ega bo'lishi kerak.

Vengerga ko'ra, bolaning maktabga tayyorlik darajasi — bu faqat bilim emas, balki psixologik tayyorgarlikning kompleks holatidir.

Elkonin bolaning maktabga tayyorlik konsepsiyasida faoliyat yetakchiligi tamoyiliga asoslanadi. Uning fikricha:

- Maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyati – erkin o'yindir.
- Maktabda esa faoliyat turi ta'lim faoliyatiga almashadi.
- Shu bois bola maktabga tayyor bo'lishi uchun, u o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tish uchun psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim.

Davydov bolalarning maktabga intellektual tayyorgarligini:

- Bilish jarayonlari (taqqoslash, umumlashtirish, tahlil),
- Nutq faolligi,
- Simvolik tafakkur orqali baholaydi.

Unga ko'ra, bola maktabda bilimni tayyor shaklda emas, balki muammoli vaziyatlarda o'zi topib olishga o'rgatilishi kerak. Bu esa mustaqil tafakkurga tayyorlikni talab qiladi.

Muxina bolaning shaxsiy tayyorgarligiga katta e'tibor qaratgan. Unga ko'ra:

- Bola o'zini "maktab o'quvchisi" sifatida tasavvur eta olishi,
- O'z harakatlariga mas'uliyat bilan yondasha olishi,
- Intizomli va boshqalarga moslasha oladigan bo'lishi zarur.

U shaxsiy va ijtimoiy tayyorgarlikni teng muhim komponentlar deb hisoblaydi.

Vygotskiy fikricha, bolaning maktabga tayyorlik darajasi — bu bolaning **yaqin rivojlanish zonasida** namoyon bo'ladi. Ya'ni bola o'qituvchi yoki kattalarning ko'magisiz emas, balki **yordam bilan rivojlanishi mumkin bo'lgan salohiyat** hisobga olinishi kerak. U shuningdek, **nutq va fikrlash** bog'liqligini asoslab bergan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalash muammosi tarixiy xarakter kasb etib, bu borada sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, A.Navoiylar tomonidan yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid ilmiy adabiyotlar muhim ahamiyatga ega. Yosh avlodga har tomonlama ta'lim-tarbiya berish maqsadida psixolog olimlardan M.Davletshin, B.Karimova, Z.Nishonova, N.Safayev, E.G'oziyevlar tomonidan muammoning psixologik jihatlarini o'rganilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich bir yillik tayyorlash guruhlarida bola portfoliosini yaratish orqali bolani maktab ta'limiga tayyorlash va o'sib kelayotgan yosh avlod bilimli va yetuk malakaga egaligini ta'minlaydi.

Muhammad Davletshin³ — sobiq ittifoq va O'zbekiston psixologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olimlardan biri bo'lib, u asosan:

- maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar psixologiyasi,
- bilish jarayonlari psixologiyasi (xotira, idrok, tafakkur, diqqat),
- didaktik psixologiya va ta'lim psixologiyasi sohalarida ilmiy izlanishlar olib borgan.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi

Davletshin o'zining ilmiy ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'limga tayyorlash uchun ularning:

- bilish faoliyati (xotira, tafakkur, idrok, e'tibor),
- hissiy-irodaviy rivojlanish darajasi,
- nutq va ijtimoiy moslashuv holatini aniqlovchi mezonlar ishlab chiqqan.

U shuni ta'kidlaydi:

“Bola maktabga borishidan oldin o'z harakatlari uchun ma'suliyatni tushuna olishi, topshiriqlarni mustaqil bajara olishi, eng muhimi — bilim olishga nisbatan ichki qiziqishga ega bo'lishi zarur.”

2. Bilish jarayonlari: xotira va diqqat

Davletshin o'z tadqiqotlarida bolalarda xotira jarayonining turlari va bosqichlarini farqlaydi:

- Mekanik xotira – yosh bolalarda ko'proq rivojlangan, eslab qolishda mantiqiy aloqa kam;
- Mantiqiy xotira – bog'liqlik asosida eslab qolish, bu 6–7 yoshdan boshlab shakllanadi;
- Ixtiyoriy xotira – bola maqsadli eslab qolishga o'rgatiladi.

Shuningdek, u e'tiborning barqarorligi va sezgi vositasida idrok qilish ko'nikmalari bola maktabga tayyor bo'lishining muhim belgilaridan biri ekanini ko'rsatadi.

3. O'yin orqali ta'lim psixologiyasi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishini o'rganishda erkin o'yin faoliyatini muhim vosita deb biladi. Unga ko'ra:

- Bola o'yinda o'z irodasini boshqaradi;
- Qoidalar asosida harakat qiladi (bu maktabdagi intizom uchun asosdir);
- Ijtimoiy rollarni bajara oladi (psixososial tayyorgarlik shakllanadi).

1-jadval

Tamoyil nomi	Izohi
Rivojlanish darajasi va tayyorgarlik aloqasi	Bola ruhiy rivojlanishi darajasi uning ta'limga qanchalik tayyorligini belgilaydi.
Bilish jarayonlarining	Idrok – diqqat – xotira – tafakkur bosqichlari bir-biriga

³ Davletshin M.M. "Bolalar psixologiyasi", Toshkent: O'qituvchi, 1985.

uzviylik	bog'liq bo'lib rivojlanadi.
Maqsadga yo'naltirilgan o'yin	O'yin jarayoni shunchaki ermak emas, balki bilish, kommunikatsiya va ijtimoiylashuv manbaidir.
Diagnostik yondashuv	Har bir bola psixologik baholov orqali tahlil qilinishi zarur: individual rivojlanish darajasi, e'tibor, xotira hajmi, o'qishga qiziqish.

1-jadval Ilmiy qarashlarining asosiy tamoyillari

Barchinoy Karimova — taniqli o'zbek psixologi, ko'plab psixologik qo'llanma va darsliklar muallifi. U asosan:

- pedagogik va yosh psixologiyasi,
- emotsional rivojlanish va shaxs shakllanishi,
- ta'limga psixologik tayyorgarlik masalalariga ixtisoslashgan.

Uning ishlari O'zbekistonning ta'lim tizimida, ayniqsa maktabgacha ta'lim sohasida keng qo'llaniladi.

B. Karimovanning ilmiy qarashlari va tadqiqot yo'nalishlari

1. Maktabga psixologik tayyorgarlikning ko'p yo'nalishliligi

Karimovaga ko'ra, bolaning maktabga tayyorligi faqat bilim emas, balki quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

2-jadval

Tayyorgarlik turi	Tavsifi
Intellektual	Bola tafakkur qilish, xotirlash, diqqatni jamlash, mantiqiy fikrlashga qanchalik qodirligi.
Emotsional	Bola o'z his-tuyg'ularini anglab, ifodalay olishi va boshqarishi.
Ijtimoiy	Atrofdegilar bilan muloqot, moslashuvchanlik, guruhda o'zini tutish.
Shaxsiy	Bola o'zini "maktab o'quvchisi" sifatida tasavvur qilishi, mas'uliyatni his qilishi.

2-javdal Bolani maktabga tayyorgaligi

2. Diagnostika va baholash muhimligi

Karimova maktabga tayyorlikni aniqlashda psixologik diagnostika vositalarini ishlab chiqqan va targ'ib qilgan. Uning asosiy yondashuvi shuki:

“Har bir bola o'ziga xos, shuning uchun maktabga tayyorlikni standart usulda emas, balki individual yondashuv asosida baholash lozim.”

U quyidagi mezonlarni tavsiya qiladi:

- Diqqat hajmi va barqarorligi,
- Mantiqiy tafakkur darajasi,
- Nutq faolligi va ifodasi,

- Mustaqil harakat qilishga tayyorgarlik.

3. Ota-ona va pedagog ishtiroki

Karimova bolani maktabga tayyorlashda:

- Oila (ota-ona),

- MTT tarbiyachilari,

- Psixolog o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni eng muhim omillardan biri deb biladi.

Uning fikricha:

“Agar bola oilada ijobiy emotsional qo'llab-quvvatlansa, o'zini ishonchli his qilsa, maktabga oson moslasha oladi.”

Ziyoda Nishonova – O'zbekistonning yetakchi psixolog olimalaridan biri bo'lib, u asosan:

- nutqning ontogenezi,

- bolalar tafakkuri va muloqot rivoji,

- shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyot,

- maktabgacha ta'limda psixodiagnostika yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Xulosa:

xotira va tafakkur kabi asosiy kognitiv funksiyalarni rivojlantirishda jins omili muhim rol o'ynashi mumkin, biroq bu omil yagona yoki asosiy aniqlovchi omil emas. U bilan bir qatorda psixopedagogik yondashuvlar, tarbiyaviy uslublar, shaxsiy va oilaviy omillar, hamda o'quv muhitining sifati kabi ko'plab mezonlar inson tafakkuri va xotirasining shakllanishi va mustahkamlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqolllariga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar. N11.
2. Shavkat Mirziyoyev_Erkin va faraovon , demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent-“O'zbekiston”-2016
3. The World youth report on Youth civic Engagement.-NY:united Nations, 2016.
4. Адаптация теста Дж.Гилфорда и М.Салливена: Руководство по использованию. -СПб., 1996. -184 с.